YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
<i>Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li</i>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI .....	1062
<i>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</i>	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ» .....	1067
<i>Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович</i>	
DAVLATNING IQTISODIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
<i>Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li</i>	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI .....	1075
<i>Quralov Nurxissa Iles o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	1082
<i>Haydarov Jasur Baxodir o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI.....	1087
<i>Mamatov Xabibulla Mamatovich</i>	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDAINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHİYATI .....	1091
<i>Turayev Ziyadulla Norsoatovich</i>	
ASOSIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1095
<i>Xoshimov Sobir Murtazayevich</i>	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
<i>Daminova Madinaxon Bahromjon qizi</i>	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSİYALASHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
<i>Saidova Dilfuza Abdufattohovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSİYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	1117
<i>Muxammedova Zarina Murodovna</i>	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI .....	1121
<i>Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich</i>	
IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIY TAJRIBASI.....	1126
<i>Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich</i>	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
<i>He Xiaoqu, Уркинбаев Т. А.</i>	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА .....	1135
<i>Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович</i>	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI .....	1140
<i>Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich</i>	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
<b>Mu Zhendi</b>	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
<b>Z.T. Bakayev</b>	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
<b>Аблаева Валентина Борисовна</b>	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI .....	1169
<b>Saparov Murod Irgashovich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI" .....	1177
<b>Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.</b>	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....	1183
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	1192
<b>Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов</b>	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
<b>Zuxurova Nargiza Abdusattarovna</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
<b>Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich</b>	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbayevich</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....	1221
<b>Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li</b>	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSIYALARGA TA'SIRI.....	1228
<b>Poyonov Jamshid</b>	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI .....	1232
<b>Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
<b>Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
<b>Utegenov Ilham Baxtiyarovich</b>	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) .....	1250
<b>Otabekov Javdod Nurulla o'g'li</b>	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1256
<b>Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li</b>	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI .....	1267
<b>Tabayev Azamat Zaripbayevich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	1272
<b>Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna</b>	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UN DARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH .....	1276
<b>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</b>	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI .....	1281
<b>Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi</b>	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN .....	1286
<b>Shokhrukh Komilov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	1291
<b>Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi</b>	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	1296
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI .....	1300
<b>Abduraimov Dilshod Muratkulovich</b>	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS .....	1304
<b>Mustafakulova Sitara Shukhratovna</b>	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI .....	1310
<b>Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI .....	1314
<b>Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna</b>	



# O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI

**Toshmatov Zoyir Xudayberganovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Iqtisodiy statistika" kafedrası professori

**Begalova Durdona Baxodirovna**

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktranti  
Email: [xusniya1969@gmail.com](mailto:xusniya1969@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi aholisi jinsi nisbatining hududiy va yosh farqlanishi statistik jihatdan tahlil etiladi. Jinsiy nisbat demografik jarayonlarning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlariga, balki nikoh bozori mutanosibligiga, mehnat resurslarining shakllanishi va taqsimlanishiga, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, jinsi nisbatining hududiy va yosh kesimidagi differensiallashuvi aholining demografik barqarorligi, urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya oqimlari hamda aholi tarkibidagi gender muvozanatini baholashda muhim ilmiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** aholi jinsiy tarkibi, jinsiy nisbat, yosh-jins piramidasi, hududiy farqlanish, statistik tahlil.

**Abstract.** This article provides a statistical analysis of the territorial and age differentiation of the sex ratio of the population of the Republic of Uzbekistan. The sex ratio is an integral part of demographic processes, which directly affects not only the indicators of the natural movement of the population, but also the proportionality of the marriage market, the formation and distribution of labor resources, as well as the stability of socio-economic development processes. At the same time, the differentiation of the sex ratio in the territorial and age segments serves as an important scientific basis for assessing the demographic stability of the population, urbanization processes, migration flows, and gender balance in the population.

**Key words:** sex composition of the population, sex ratio, age-sex pyramid, regional differentiation, statistical analysis.

**Аннотация.** В статье представлен статистический анализ территориальной и возрастной дифференциации соотношения полов населения Республики Узбекистан. Соотношение полов является неотъемлемой частью демографических процессов, напрямую влияющей не только на показатели естественного движения населения, но и на пропорциональность брачного рынка, формирование и распределение трудовых ресурсов, а также на устойчивость процессов социально-экономического развития. При этом дифференциация соотношения полов в территориальном и возрастном сегментах служит важной научной основой для оценки демографической устойчивости населения, процессов урбанизации, миграционных потоков и гендерного баланса населения.

**Ключевые слова:** половой состав населения, соотношение полов, возрастно-половая пирамида, региональная дифференциация, статистический анализ.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Chunki tug'ilish, vafot etish, nikoh, ajrim va migratsiya kabi demografik ko'rsatkichlar aholining tabiiy harakati hamda hududiy joylashuvini belgilovchi asosiy omillardir. Mustaqillik yillaridan boshlab mamlakatda aholi soni barqaror



o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, demografik tarkibida yoshlarning yuqori ulushi kuzatilmoqda. Bu esa mehnat resurslari salohiyati, ijtimoiy infratuzilma imkoniyatlari hamda iqtisodiy siyosat yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Demografik jarayonlarni tizimli o'rganish va ularni tahlil qilish nafaqat statistik ahamiyatga ega, balki davlat siyosatini shakllantirish, davlat dasturlarini rejalashtirish hamda milliy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda zaruriy ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekiston aholisi demografik rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlarini muntazam o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Aholi tarkibidagi global o'zgarishlarni baholash, aholi sog'lig'ini mustahkamlash, ayollar va bolalar ahvolini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, aholining joriy hisobini yuritish, birlamchi demografik ma'lumotlar bazasini shakllantirish va aholini ro'yxatga olishga puxta tayyorgarlik ko'rish masalalari O'zbekiston Respublikasi "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi 2020-yil 16-martdagi O'RBQ-611-son Qonuni [1]da keng yoritildi. Mazkur Qonunda mamlakatning demografik vaziyatdagi o'zgarishlarni baholashga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirish va aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

21-asrda demografik jarayonlarni chuqur tadqiq etish, ayniqsa aholining jinsiy tarkibini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida muhim o'rin tutmoqda. Jinsiy nisbatning hududiy va yosh farqlanishi nafaqat tabiiy harakat ko'rsatkichlari, balki mehnat bozori, nikoh strukturasi shakllanishi va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, so'nggi yillarda aholining jinsiy tarkibini statistik usullar orqali tahlil qilish va uni makro va mikro darajadagi omillar bilan izohlash masalasiga ilmiy adabiyotlarda alohida e'tibor qaratilmoqda.

A.D. Abduraxmonovning [2] fikriga ko'ra, "aholining jinsiy tarkibi erkaklar va ayollar ulushining nisbati orqali ifodalanadi hamda u demografik jarayonlar bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Jinsiy nisbatni belgilovchi asosiy omillar tug'ilishdagi biologik tafovutlar, erkak va ayollar o'rtasidagi o'lim darajasidagi farqlar hamda migratsion oqimlar hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi, ayollarning ijtimoiy hayotdagi mavqei va tarixiy jarayonlar ham ushbu tarkibga ta'sir ko'rsatadi".

M. Boriyeva, Z. Tojiyeva va S. Zokirovlar [3] o'z ilmiy tadqiqotlarida aholining yosh tarkibi uning tabiiy ko'payishiga bog'liq deb hisoblaganlar. Tug'ilish yuqori bo'lgan holatlarda aholi tarkibida bolalar salmog'i yuqori bo'ladi yoki, aksincha, tug'ilish past, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati nisbatan uzoq hollarda aholi tarkibida qariyalar salmog'ining yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Abdurahmonov Q.H. va Abduramanov X.X. [4]larning fikricha, demografik hodisalar doimo u yoki bu yoshda amalga oshadi. Bunda ularning amalga oshishidagi tebranish yosh o'tishi bilan o'zgaradi yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun demografiyada yosh har qanday demografik hodisaning eng muhim tavsifi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan o'lgandagi yosh (o'lim yoshi), nikohga kirish va bola tug'ish yoshi deb nomlanuvchi yoshlar va hokazolar gapiriladi.

Shu jumladan, V. Lutz, Mark S. va A. Leo [5, 6, 7] o'z ilmiy izlanishlarida aholining yosh va jins tarkibiga oid nazariy konsepsiyalarni chuqur tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida, xususan, demografik dividendning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, migratsiya jarayonlari va hududiy joylashuv omillariga bog'liq ravishda yuzaga keladigan yosh-jins tarkibidagi tafovutlar, shuningdek, aholining yosh va jins tuzilmasini prognozlash metodlari hamda barqaror aholi tarkibining demografik siyosat va rejalashtirishdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Shu nuqtayi nazardan, Becker [8] "Inson kapitali" konsepsiyasida yosh avlodning iqtisodiyotga qo'shadigan hissasi ularning bilim va malaka darajasiga bog'liqligini asoslab beradi. Shuningdek, Bloom va Canning [9] o'z tadqiqotlarida aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar investitsiya, jamg'arma va iste'mol darajalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston aholisi jinsi nisbatining hududiy va yosh farqlanishini tahlil qilishning ilmiy-amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy rivojlanish davrida barcha mamlakatlar singari O'zbekiston ham aholining demografik tuzilmasida bosqichma-bosqich o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim hududlarda tug'ilish darajasi yuqoriligi sababli bolalar va o'smirlar ulushi ko'p bo'lsa, boshqa mintaqalarda migratsiya jarayonlari natijasida mehnat yoshidagi aholining erkaklar ulushi nisbatan ortiqroq bo'lmoqda.

Hududiy tafovutlarning yana bir jihati shundaki, iqtisodiy faol aholi ko'proq to'plangan shahar markazlarida mehnatga layoqatli qatlamning ustunligi kuzatilsa, chekka va qishloq hududlarda demografik yuklama yuqori bo'lib, bolalar va keksalar salmog'i sezilarli darajada ortiqdir. Bu esa mehnat resurslari taqsimoti, ijtimoiy infratuzilma va xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishida ma'lum nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining yosh va jins tarkibini hududiy jihatdan tahlil qilish mehnat munosabatlari va bandlik sohasida qabul qilinadigan me'yorlar bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Chunki hududlar kesimida demografik jarayonlarning farqlanishi, yoshlar ulushining yuqoriligi yoki ayollar va erkaklar nisbatining nomutanosibligi mehnat bozoridagi ehtiyojlarni shakllantiradi. Masalan, mehnatga kirishish yoshidagi aholi ko'paygan hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va norasmiy bandlikni qisqartirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Aholining yosh va jins tarkibini hududiy jihatdan o'rganish demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilishda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki aholining yosh tarkibi ishlab chiqarish samaradorligi, iste'mol darajasi va jamg'arma ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Masalan, yosh aholining ulushi yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy o'sish uchun demografik dividenddan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, bu jarayon ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik tizimiga qo'shimcha yuklamalar keltirib chiqaradi.

2015–2025-yillar kesimida aholining yosh va jins tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, 0–15 yoshdagi aholining soni ham ayollar, ham erkaklar kesimida sezilarli darajada oshgan. Bu holat yuqori tug'ilish darajasi va hududlarda yosh avlod ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, o'smir va yoshlar (16–24 yosh) guruhida aholining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 18–19 yoshdagi ayollar soni 96,2 ming kishiga (-15,6%) qisqargan bo'lsa, erkaklar sonida ham shunga yaqin darajada (-14,9%) pasayish qayd etilgan. Xuddi shuningdek, 20–24 yoshli aholi orasida ayollar soni 22%ga, erkaklar esa 20,8%ga kamaygan. Ushbu salbiy dinamika 2000-yillarda tug'ilish darajasining nisbatan pasayishi bilan izohlanadi hamda demografik to'lqin effekti natijasida yosh tarkibida muayyan "bo'shliq"ning shakllanishini ko'rsatadi.

Mehnatga kirishish yoshidagi (25–39 yosh) aholining tarkibida turlicha demografik dinamika kuzatilmoqda. Jumladan, 25–29 yosh guruhida ayollar soni 7,4%ga, erkaklar esa 5%ga kamaygan. Biroq 30–34 hamda 35–39 yosh toifalarida sezilarli o'sish qayd etilgan bo'lib, ayollarda bu ko'rsatkich 25–40%ni, erkaklarda esa 28–43%ni tashkil etadi.

O'rta yosh (40–59 yosh) guruhida ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Masalan, 40–49 yoshdagi ayollar soni 473,3 ming kishiga, erkaklar esa 519 ming kishiga ortgan. Ushbu jarayon mehnat resurslarining nisbatan yetuk avlodlar hisobiga kengayib borayotganini, demografik strukturada ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan toifalarning salmog'i oshayotganini ko'rsatadi.

Keksalar guruhi (60 yosh va undan yuqori) esa eng yuqori o'sishni namoyon qilmoqda. Xususan, 60–64 yosh oralig'ida ayollar soni 323,1 ming kishiga (175,4%), erkaklar esa 282,7 ming kishiga (173,4%) ko'paygan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi aholisi sonining yosh-jins ko'rsatkichlari bo'yicha differensial tahlili<sup>1</sup>

Yosh	2015		2025		2025-yil 2015-yilga nisbatan o'sish sur'ati			
	ayol	erkak	ayol	erkak	(+,-)da, ayol	%da, ayol	(+,-)da, erkak	% da, erkak
1	2	3	4	5	6	7	8	9
0-2 yosh	950993	1026302	1339947	1436120	388954	140,9	409818	139,9
3-5 yosh	916025	980588	1209310	1298597	293285	132,0	318009	132,4
6-7 yosh	603501	638159	681931	745917	78430	113,0	107758	116,9
8-15 yosh	2028512	2137357	2571575	2765713	543063	126,8	628356	129,4
16-17 yosh	547149	573318	604365	637796	57216	110,5	64478	111,2
18-19 yosh	615215	644294	519024	548478	-96191	84,4	-95816	85,1
20-24 yosh	1589644	1647703	1240388	1305568	-349256	78,0	-342135	79,2
25-29 yosh	1516943	1548658	1404903	1470633	-112040	92,6	-78025	95,0
30-34 yosh	1255470	1264051	1570012	1623784	314542	125,1	359733	128,5
35-39 yosh	1064176	1062068	1495612	1519653	431436	140,5	457585	143,1
40-49 yosh	1801869	1740095	2275212	2259128	473343	126,3	519033	129,8
50-59 yosh	1452717	1357469	1733786	1635028	281069	119,3	277559	120,4
60-64 yosh	428779	385322	751949	668077	323170	175,4	282755	173,4
65 va undan kattalar	699309	546839	1240681	989980	541372	177,4	443141	181,0

1 Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



Ushbu ko'rsatkichlar aholining qarish jarayonining jadallashayotganidan dalolat beradi. 2015–2025-yillar oralig'ida yosh tarkibida ikki asosiy tendensiya kuzatildi, ya'ni yosh avlod salmog'ining ortishi demografik dividend uchun imkoniyat yaratmoqda. O'rta va keksa yosh guruhlarining keskin ko'payishi esa aholining qarish jarayonini tezlashtirmoqda.


Hududiy demografik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, jinsiy nisbatning shakllanishi qishloq va shahar hududlari kesimida, shuningdek, turli yosh guruhlari bo'yicha sezilarli farqlarga ega:

- qishloq hududlarida tug'ilish darajasining yuqoriligi sababli yosh avlod tarkibida erkaklar ulushi nisbatan yuqori saqlanib qolmoqda. Bu holat biologik qonuniyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy omillar, xususan, tug'ilishning hududiy intensivligi bilan ham izohlanadi;

- shahar hududlarida esa mehnat migratsiyasi jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Xususan, tashqi va ichki migratsiya oqibatida ko'proq erkaklar mehnat bozoriga jalb etilishi natijasida ayrim yosh guruhlarda erkaklar sonining kamayishi kuzatiladi. Natijada, shaharlarda ayollar ulushi yuqori bo'lib, jinsi nisbatining hududiy disbalansi shakllanadi;

- keksalar guruhida esa deyarli barcha hududlarda ayollar sonining ustunligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning asosiy sababi ayollarda o'rta umr davomiyligi erkaklarnikiga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi, erkaklar orasida o'lim ko'rsatkichlarining yuqoriligi va salomatlikka oid tafovutlar bilan bog'liq.

2021–2025-yillar davomida O'zbekiston aholisi tarkibida qishloq va shahar aholisi soni barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Biroq, mazkur o'sish sur'atlari hududiy jihatdan farqlanadi. 2021-yilda 17,0 mln kishi bo'lgan qishloq aholisi 2025-yilga kelib 18,4 mln kishiga yetgan. Absolyut o'sish 1,36 mln kishini, nisbiy o'sish esa 7,9%ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich qishloq hududlarida tabiiy o'sishning davom etayotganini bildiradi, biroq bu jarayon shahar hududlaridagiga nisbatan sekinroq kechmoqda. Shahar aholisining dinamikasi yanada jadallashgan bo'lib, 2021-yilda 17,5 mln kishidan 2025-yilga kelib 19,1 mln kishiga yetgan. Bu davrda 1,63 mln kishilik absolyut o'sish qayd etilgan, nisbiy o'sish sur'ati esa 9,3%ni tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston aholisi sonining qishloq va shahar hududlari bo'yicha demografik taqsimlanishi (ming kishi)<sup>2</sup>

Mazkur tendensiya urbanizatsiya jarayonlarining jadallashayotganidan, shuningdek, qishloqlardan shaharlarga ichki migratsiya oqimlarining kuchayganidan dalolat beradi. 2021-yilda qishloq va shahar aholisi soni deyarli teng bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib shahar aholisi qishloq aholisidan 0,73 mln kishiga ko'proq bo'lib, demografik muvozanat asta-sekin shahar hududlari foydasiga siljiyotgani kuzatilmoqda. Bu esa demografik urbanizatsiya jarayonining ustuvor trend sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekiston demografik rivojlanishining eng muhim xususiyatlaridan biri – aholi sonining qishloq va shahar hududlari bo'yicha notekis taqsimlanishidir. Mamlakat aholisi an'anaviy tarzda qishloq joylarda ko'proq yashagan bo'lsa-da, so'nggi yillarda urbanizatsiya jarayonlari jadallashib, shahar aholisi salmog'i bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Qishloq hududlarida yuqori tug'ilish darajasi va yosh avlodning salmog'i ko'proq bo'lishi

2 Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



aholining tabiiy o'sishini tezlashtirmoqda. Shahar hududlarida esa demografik o'sish ko'proq iqtisodiy omillar – sanoatning rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sektorining kengayishi va ichki migratsiya oqimlari bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi yosh-jins tarkibi bo'yicha olib borilgan statistik tahlillar natijalari mamlakat demografik jarayonlarining o'ziga xos hududiy xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. 2025-yil holatiga ko'ra, mamlakat aholisi 37,5 million kishini tashkil etib, shundan 18,9 millionini erkaklar, 18,6 millionini esa ayollar tashkil etadi. Jinsiy nisbat ko'rsatkichi har 1000 erkakka 986 ayol to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu esa ayollar ulushi erkaklarnikiga nisbatan biroz ustunligini bildiradi.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlil erkaklar va ayollar soni o'rtasida ma'lum tafovutlar mavjudligini aniqladi. Xususan, Toshkent shahri (1037) ko'rsatkich bilan ayollar ulushi eng yuqori bo'lgan hudud sifatida ajralib turadi. Bu holat poytaxtda ayollar bandligi yuqoriligi, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarning rivojlanganligi, shuningdek, erkaklarning boshqa mintaqalarga yoki xorijga mehnat migratsiyasi bilan chiqib ketishi bilan izohlanadi. Shunga o'xshash tendensiya Namangan (967), Qashqadaryo (972) va Navoiy (973) viloyatlarida ham kuzatilmoqda. Aksincha, Xorazm (997), Buxoro (994) va Toshkent viloyati (992) kabi hududlarda jinsiy nisbat deyarli tenglikka yaqin bo'lib, har 1000 erkakka mos ravishda 997, 994 va 992 ayol to'g'ri keladi. Bu hududlarda migratsiya darajasi nisbatan past bo'lib, demografik barqarorlik saqlanib qolgan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston aholisi sonining jinsiy tarkibining viloyatlar kesimidagi hududiy tahlili (ming kishi)<sup>3</sup>

Viloyatlar	Aholi soni (jami)	Erkaklar soni	Ayollar soni	Jinsiy nisbat (1000 ayolga to'g'ri keladigan erkaklar soni)
<i>O'zbekiston Respublikasi</i>	37543,2	18904,5	18638,7	986
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	2029,7	1019,8	1009,9	990
<i>Viloyatlar:</i>				
Andijon	3461	1753,3	1707,7	974
Buxoro	2077	1041,6	1035,4	994
Jizzax	1537,6	776,1	761,5	981
Qashqadaryo	3639,3	1845,4	1793,9	972
Navoiy	1094,7	554,7	540	973
Namangan	3131,7	1591,9	1539,8	967
Samarqand	4297,5	2165,5	2132	985
Surxondaryo	2945,5	1490,9	1454,6	976
Sirdaryo	930,8	467,5	463,3	991
Toshkent viloyati	3108,5	1560,3	1548,2	992
Farg'ona	4144,7	2092	2052,7	981
Xorazm	2032,4	1017,6	1014,8	997
Toshkent shahar	3112,8	1527,9	1584,9	1037


Shunday qilib, O'zbekistonda jinsiy nisbatining hududiy tafovutlari demografik siyosatni shakllantirish jarayonida albatta hisobga olinishi zarur bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni muntazam kuzatib borish aholining tabiiy harakati, migratsiya oqimlari hamda mehnat resurslari bo'yicha uzoq muddatli prognozlar ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega.

2025-yil uchun tuzilgan yosh-jins piramidasi O'zbekiston aholisi tarkibida sezilarli demografik xususiyatlarni ko'rsatmoqda.

Birinchidan, aholining eng katta qismini yosh avlod (0–19 yosh) tashkil qilmoqda. Jumladan, 0–15 yoshli bolalar va o'smirlarning jami ulushi erkaklarda 17%, ayollarda esa 15%ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich yuqori tug'ilish darajasi davom etayotganini, shuningdek, kelajakda mehnat resurslari ko'payishini anglatadi. Biroq bu holat davlat oldiga ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga qo'shimcha yuk tushishini ham keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, 20–39 yoshdagi aholi ham juda salmoqli guruhni tashkil etmoqda. Ushbu qatlamda erkak va ayollar ulushi deyarli teng (har biri 3–4% atrofida), bu esa mehnat bozorida gender muvozanati nisbatan barqaror ekanidan dalolat beradi. Ushbu guruh mehnatga layoqatli aholi bazasining asosiy qismini shakllantiradi (2-rasm).

3 Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm. 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi aholisining yosh-jins piramidasi, %da <sup>4</sup>

Uchinchidan, o'rtacha yosh guruhlari (40–59 yosh) ham sezilarli salmoqqa ega bo'lib, ularning ulushi 10%dan ortiq. Bu guruh aholining iqtisodiy faol qatlamini mustahkamlaydi va demografik barqarorlikni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, piramidaning yuqori qismi – 60 yosh va undan kattalar ulushi ancha past. Xususan, 65 va undan katta yoshdagi erkaklar 2,6%, ayollar 3,3%ni tashkil qilmoqda. Bu holat ikki jihatni ko'rsatadi: birinchidan, umr davomiyligi hali yuqori emas, ikkinchidan, yuqori yosh guruhlarida ayollar soni erkaklardan sezilarli darajada ustunlik qilmoqda. Bunday tafovut tabiiy biologik omillar, shuningdek, erkaklar salomatligidagi muammolar bilan izohlanadi.

Umuman olganda, piramida shakli keng asosli va yuqoriga tomon torayib boruvchi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bu rivojlanayotgan davlatlarga xos demografik model bo'lib, yuqori tug'ilish darajasi, mehnat resurslarining yetarliligi va yosh aholi ulushining ustunligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, piramida kelajakda demografik yuklamaning o'sishi, pensiya tizimiga bosim kuchayishi hamda ta'lim va ish o'rinlariga talab ortishini ham ko'rsatib bermoqda.

O'zbekistonda aholining yosh va jins tarkibi bo'yicha hududiy farqlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, demografik tarkibda tabiiy harakatning an'anaviy xususiyatlari saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, yosh guruhlari bo'yicha gender tafovutlari kelgusida mehnat resurslarini samarali taqsimlash va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda muhim statistik asos bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston aholisi yosh-jins tarkibining statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining sezilarli qismi mehnatga layoqatli yosh guruhlariga to'g'ri keladi va bu mamlakatning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim demografik ustunlik hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda erkaklar va ayollar ulushi o'rtasidagi tafovutlar aholining migratsion harakati, shuningdek, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan izohlanadi. Demak, yosh-jins tarkibidagi bunday xususiyatlar davlatning mehnat bozori, ijtimoiy siyosati hamda hududiy rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu kuzatuvlar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. demografik siyosatni rejalashtirishda yosh tarkibining ustunligini hisobga olish – yoshlar bandligi, ta'lim sifati va kasb-hunar tayyorgarligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lishi lozim;
2. hududiy farqlarni chuqurroq o'rganish – viloyatlar kesimida jinsiy nisbat tafovutlari mehnat resurslarini qayta taqsimlash va migratsiya siyosatini optimallashtirishda inobatga olinishi zarur;

<sup>4</sup> Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



3. keksalar sonining asta-sekin ortishini prognoz qilish – uzoq muddatli istiqbolda pensiya tizimi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni yanada samarali tashkil etish uchun asos yaratadi;

4. gender siyosatini kuchaytirish – ayrim hududlarda ayollar ulushining yuqoriligi, boshqalarda esa erkaklar ko'pligi gender tengligi masalalarini amaliy siyosatda hal qilishni talab qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 16.03.2020 yildagi "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'RQ-611-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4766082>
2. A.D. ABDURAXMONOV Aholi statistikasi. Toshkent-2021
3. M. Boriyeva, Z. Tojiyeva, S. Zokirov. Aholi geografiyasi va demografiyasi asoslari. Toshkent-2011
4. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X- Demografiya. O'quv qo'llanma. Toshkent-2011. B.79
5. Wolfgang Luts- Education rather than age structure brings demographic dividend. June 10,2019
6. [Mark C. Wheldon](#), [Adrian E. Raftery](#), [Samuel J. Clark](#), [Patrick Gerland](#). Bayesian Reconstruction of Two-Sex Populations by Age: Estimating Sex Ratios at Birth and Sex Ratios of Mortality. 17 Dec 2013
7. Leo O.Goodman, On the age-sex compsoition of the population that would result from given fertility and morality conditions Published: June 1967. Volume 4, pages 423-441
8. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press
9. Bloom, D. E., & Canning, D. (2003). The Demographic Dividend: A New Perspective on the Economic Consequences of Population Change. RAND Corporation
10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---